

BOYSUN TUMANI DEMOGRAFIK HOLATI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li

Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

O'zbekov Daler Oybek o'g'li

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy ishda Boysun tumanining 2024–2025-yillardagi demografik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Aholi soni, tug'ilish va o'lim koeffitsientlari, tabiiy o'sish dinamikasi hamda nikoh-qjrimlar statistikasi o'rganilgan. Migratsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy ta'siri yoritilgan. Demografik o'zgarishlarning tuman rivojiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so'zi: Aholi, demografik harakat, tug'ulish, o'lim, migratsiya, migratsiya saldosi.

***Аннотация:** В данной научной работе проанализированы демографические показатели Бойсунского района за 2024–2025 годы. Изучены численность населения, коэффициенты рождаемости и смертности, динамика естественного прироста, а также статистика браков и разводов. Освещены миграционные процессы и их социальное влияние. Проанализировано влияние демографических изменений на развитие района. Исследование основано на официальных статистических данных.*

Ключевые слова: Население, демографическое движение, рождаемость, смертность, миграция, чистая миграция.

DEMOGRAPHIC SITUATION, PROBLEMS, AND PROSPECTS OF BOYSUN DISTRICT

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li- Teacher at Termez State University,
Department of Geography

Ozbekov Daler Oybek o'g'li - 2nd-year student in Geography education at
Termez State University

***Annotation:** This scientific work analyzes the demographic indicators of the Boysun district for the years 2024–2025. It studies the population size, birth and death rates, natural growth dynamics, and the statistics of marriages and divorces. Migration processes and their social impact are highlighted. The influence of demographic changes on the district's development is analyzed. The study is based on official statistical data*

***Keywords:** Population, demographic movement, birth, death, migration, net migration.*

Kirish. Demografik jarayonlar har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Aholi soni, tarkibi, tabiiy harakat ko'rsatkichlari, migratsiya holati bevosita iqtisodiy faollik, mehnat resurslari va ijtimoiy xizmatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi uchun har bir tuman va hududning demografik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni ilmiy tahlil qilish asosida tegishli strategik qarorlar qabul qilish dolzarb vazifadir [1,4].

Surxondaryo viloyatining tog'li hududlaridan biri bo'lgan Boysun tumani o'zining tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyatidan tashqari, ijtimoiy-demografik jarayonlar dinamikasi bilan ham alohida e'tibor talab etadi. Ushbu ilmiy maqolada tumanning 2024-yil yakuniga oid demografik holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi, mavjud muammolar ochib beriladi va istiqboldagi demografik rivojlanish yo'nalishlariga doir takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boysun tumanining demografik holati, mavjud muammolari va demografik rivojlanish istiqbollari o'rganish jarayonida kompleks, tizimli va zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida tadqiqot olib borildi. Ushbu metodologik asoslar demografik jarayonlarni chuqur o'rganish,

muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Boysun tumanining doimiy aholisi 127,1 ming kishini tashkil etgan. Bu raqam 2024-yil boshiga nisbatan 2,5 ming kishiga (2,0%) ko'p bo'lib, aholi sonining ijobiy o'sish sur'atini ifodalaydi.

Aholining jinsiy tarkibi ham muvozanatli ko'rinishda bo'lib, erkaklar ulushi 51,2%, ayollar ulushi esa 48,8% ni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat resurslarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi[9].

2024-yil davomida tumanda 3 512 ta tug'ilish holati qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 90 taga kamaygan. Tug'ilish koeffitsienti esa 27,9 promilleni tashkil etgan (2023-yilda 29,2 promille). Shuningdek, 2024-yilda 576 ta o'lim holati qayd etilgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 30 taga kamaygan (2023-yilda 606 ta).

O'lim koeffitsienti 4,6 promille bo'lib, o'tgan yilga qaraganda 0,3 promillega pastlagan. Bu esa sog'liqni saqlash tizimidagi yutuqlar, profilaktika choralari va aholining yashash darajasi o'zgarishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

2024-yil yakunida tumanning tabiiy o'sish ko'rsatkichi 2 936 kishini tashkil etdi, bu 2023-yildagi 2 996 kishiga nisbatan 60 kishiga kamaygan. Bu tendensiya tug'ilish sur'atining pasayishi va o'lim darajasining nisbiy barqarorligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, tabiiy o'sish mavjud bo'lsa-da, uning sur'atida pasayish kuzatilmoqda[8].

Nikoh va ajralishlar jamiyatdagi ijtimoiy muhit, oilaviy qadriyatlar va iqtisodiy sharoitlarning o'ziga xos ko'rsatkichidir. 2024-yil davomida FHDYO organlarida 965 ta nikoh va 110 ta ajralish holati qayd etilgan. Har ming aholiga to'g'ri keluvchi nikoh koeffitsienti 7,7 promille (2023-yilda 8,6), ajralishlar esa 0,9 promille (2023-yilda 1,0 promille) ni tashkil etgan.

Bu raqamlar nikohlar sonida biroz kamayish, ajralishlarda esa nisbiy barqarorlikni ko'rsatmoqda. Nikohlar sonining kamayishi yoshlar orasida oilaviy

hayotga kirishish yoshi ortib borayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bog'liqligini bildirishi mumkin.

2024-yil davomida Boysun tumanida ko'chib kelganlar soni 338 kishini, ko'chib ketganlar esa 794 kishini tashkil etdi. Natijada, migratsiya saldosi –456 kishini tashkil etib, 2023-yildagi saldodan (–362 kishi) ham yomonroq natijani ko'rsatdi. Bu esa, asosan, ishsizlik, ijtimoiy infratuzilmaning yetarli emasligi yoki yaxshi yashash sharoitini izlash kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin[7].

Migratsiya saldosi salbiy bo'lgan hududlarda aholi soni tabiiy o'sish hisobiga oshgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bu aholi tarkibining o'zgarishiga, mehnat resurslarining kamayishiga olib keladi. Shu bois, migratsiyani boshqarish, ayniqsa yoshlar orasida mahalliy bandlikni ta'minlash siyosati muhimdir[3,5,6].

Boysun tumanining 2024-yil bo'yicha demografik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, aholining tabiiy o'sishi barqaror bo'lsa-da, tug'ilish darajasida pasayish, migratsiya ko'rsatkichlarida esa salbiy holat saqlanib qolmoqda. Aholi sonining umumiy o'sishi ijobiy bo'lsa-da, bu o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi takliflar muhim deb hisoblanadi:

- tug'ilish sur'atini barqarorlashtirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlov choralarini kuchaytirish zarur: tug'ruqdan keyingi yordam, yosh oilalarga subsidiyalar, bolalar bog'chasi va tibbiyot xizmatlarini kengaytirish;

- migratsiyani kamaytirish uchun tumandagi ish o'rinlarini ko'paytirish, yoshlar uchun kasb-hunar o'rganish markazlarini ochish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish lozim;

- nikohlar sonini barqarorlashtirish va ajralishlarni kamaytirish maqsadida ijtimoiy-psixologik maslahat markazlarini yo'lga qo'yish, yoshlar orasida oilaviy hayot madaniyatini targ'ib qilish muhimdir;

- tibbiyot xizmatlarini takomillashtirish orqali o'lim ko'rsatkichini yanada pasaytirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish zarur;

- demografik monitoringni yaxshilash, raqamli statistik tizimlar orqali demografik jarayonlarni real vaqtda kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Boysun tumanining demografik holati ijobiy jihatlar bilan birga, ehtiyotkorlik bilan tahlil etilishi lozim bo'lgan muammoli tomonlarga ham ega. Tabiiy o'sish sur'atini saqlab qolish, migratsiya oqimini ijobiy tomonga o'zgartirish, oilaviy barqarorlikni ta'minlash orqali ushbu tumanning barqaror demografik taraqqiyotiga erishish mumkin. Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining hamkorlikda olib boradigan siyosati ayni shu yo'nalishlarga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" – T.: Adolat, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, O'zbekiston, 2014 yil.
3. Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). –T.: 2009.
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
5. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
6. Xudoyorov L., Haydarova N. O'zbekistonda demografik jarayonlar shakllanishi va rivojlanishi // "Экономика и социум" – 2024. -№5.–В.954-957 .
7. O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasining 2024 yilga qadar chop etilgan respublika aholisining soni tabiiy o'sishi, migratsiyasi va ijtimoiy taraqqiyotiga oid statistik yilnomalar.
8. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti: "Boysun tumani ijtimoiy-iqtisodiyoti axborotnomasi", 2024-yil. www.surxon.uz
9. Boysun tumani hokimligi rasmiy axborot portal. www.boysun.uz